NOSPETSIFIK YARALI KOLIT VA UNING BIRLAMCHI PROFILAKTIKASI

Isaqova Nasiba Raxmatjonovna
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute

Mavzuning dolzarbligi. Nospetsifik yarali kolit (yo'g'on ichak yarasi) — bu yo'g'on ichak shilliq qavatining yallig'lanish tabiatli surunkali patologiyasi. Kasallik organizmning genetik xususiyatlari, atrof-muhit omillarining kompleks salbiy ta'sir ko'rsatishi tufayli yuzaga keladi, ular ichakdagi yallig'lanish jarayonining kuchayishiga sabab bo'ladi. Kasallik asosan 15-25 yoki 55-65 yoshdagi odamlarda uchraydi. 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda patologiya deyarli qayd etilmaydi.

Yarali kolit joylashuvi, kasallikning og'irligi va kechishi murakkabligiga qarab tasniflanadi. Kasallikning kechishiga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

O'tkir kolit — xurujlar to'satdan va tashqi omillarning aniq ta'siri tufayli yuzaga keladi;

Surunkali kolit — irsiy moyillik rivojlanish omili bo'lib xizmat qiladi, sust kechish bilan tavsiflanadi;

Qaytalanuvchi kolit — surunkali kasallik bo'lib, tashqi salbiy omillar ta'sirida o'tkir shaklga o'tadi, qo'zg'atuvchi ta'siri bekor bo'lsa, yana surunkali shaklga qaytadi.

Yo'g'on ichak yarasining davolash eng qiyin bo'lgan shakli bu surunkali yoki qaytalanuvchi kolitdir, chunki bunday hollarda yallig'lanish ichak shilliq qavatining katta qismlariga ta'sir qilgan bo'ladi. Ichakning umumiy yallig'lanishidan so'ng tiklanish mahalliy yallig'lanish jarayonlarini davolashdan ko'ra ko'proq vaqt talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi: bolalar orasida yarali kolit kasalligini kechishi, asoratlari, davolash va profilaktikasini o'rganish hamda ushbu kasallikning bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sirini taxlil qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalari va xulosa. Yarali kolitning alomatlari kasallikning rivojlanish bosqichiga va og'irligiga qarab farq qiladi. Bunda ichakda va undan tashqarida kuzatiladigan alomatlar ajratiladi. Shuningdek, kasallik uzoq vaqt davomida bemorga sezilmasdan, hech qanday noqulaylik tug'dirmasdan davom etishi mumkin. Kasallik quyidagi belgilar bilan uchraydi: najasda qon aniqlanishi bilan ich buzilishi, hojat chiqarishga soxta chaqiriqlar, varaja qilish, tana haroratining ko'tarilishi, organizmning suvsizlanishi, qorinda sanchuvchi yoki simillovchi og'riqlar, asosan chap tomonda ustunlik qiladi, ishtaha yo'qolishi va uning fonida vazn tashlash.

Kolit belgilari boshqa patologiyalar, jumladan gastrit, qo'zg'algan ichak sindromi, Kron kasalligi alomatlariga o'xshaydi. Shu sababli yakuniy tashxis qo'yish uchun ichakdan tashqari kuzatiladigan belgilar e'tiborga olinishi kerak: ko'rish organi kasalliklari (ko'rish keskinligining pasayishi bilan birga keladigan irit, kon'yunktivit), og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi, yarachalar paydo bo'lishi, stomatit, artrit, terining mahalliy patologiyalari, tromboemboliya va tromboflebit, hissiy beqarorlik. Ichak va ichakdan tashqaridagi belgilarning mavjudligi kasallikning etiologiyasini, bemorning ahvoli og'irligini aniqlash va davolashning eng samarali usulini tanlash uchun yanada batafsil tashxis qo'yish imkonini beradi.

Bugungi kunda bolalarda uchrab turayotgan yarali kolitni keltirib chiqaradigan sabablar to'liq o'rganilmagan. Bolalarda o'tkazilgan tadqiqotimiz davomida quyidagi sabablar yetakchi o'rinni egalladi: irsiy omillar (qarindoshlarda yarali kolit va Kron kasalligi aniqlanganligi bemorda YKni rivojlanish xavfini oshiradi); virusli va bakterial infeksiyalar (ularning yallig'lanish rivojlanishiga ta'siri o'rganilmoqda); tashqi salbiy omillar; tez-tez kuchli stressga yo'liqish; nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlarni nazoratsiz qabul qilish; immunitetning pasayishi va autosensibilizatsiya kasallikning boshlanishi va rivojlanishiga yordam beradi.

https://wordlyknowledge.uz

Yarali kolit darhol davolanishni talab qiladi. Ko'pincha diareya va ichakdan qon ketishi suvsizlanish va kamqonlikni keltirib chiqaradi. Kolitning yana bir keng tarqalgan asoratlari bu to'g'ri ichak perforatsiyasi (teshilishi). Ushbu asorat bemorning hayotiga tahdid soladi, chunki bunda najas qorin bo'shlig'iga o'tib, peritonitga olib kelishi mumkin. Yana bir jiddiy asorat — toksik megakolon — yo'g'on ichakning tezda kengayishi. Bu uning faoliyatini buzadi va ichakning normal ishlashiga xalaqit beradi. Patologiyaning belgilari qorin dam bo'lishi, og'riqlar, isitma, ich qotishi, suvsizlanish va taxikardiya sanaladi.

Yo'g'on ichak yarasi aniqlangan bemorlarda yo'g'on ichak saratoni xavfi ham ortadi. Ichak shilliq qavatining to'liq yallig'lanishi bilan og'rigan bemorlarda onkologiya rivojlanishi xavfi kasallikning rivojlanishidan 8 yil o'tgach, mahalliy kolit bilan og'rigan bemorlarda — 15 yildan keyin kuchayadi.

Yo'g'on ichak yarasini tashxislash quyidagilarni o'z ichiga oladi: Kolonoskopiya (biopsiya bilan, agar kerak bo'lsa, ta'sirlangan to'qimalarni o'rganish bilan); Leykotsitlar va eritrositlar (qizil qon hujayralari) sonini aniqlash uchun umumiy qon tahlili; Qon hujayralari, patogen mikrofloralar, parazit tuxumlari mavjudligini aniqlash uchun najasni tahlil qilish; Kontrastli rentgenografiya (og'ir holatlarda ichak devori teshilishini istisno qilish uchun tavsiya etiladi); KT va / yoki MRT (agar ichakni to'liq vizualizatsiya qilish zarur bo'lsa).

Yuqorida tashxislash natijalari o'rganib chiqilganda hamda to'liq tashxis qo'yilgandan so'ng, yarali kolitni davolashning individual strategiyasi ishlab chiqiladi, unga muvofiqlik remissiya holatiga erishishga imkon beradi. Yarali kolitni keltirib chiqaradigan sabab hali to'liq o'rganilmaganligi sababli aniq profilaktika choralari mavjud emas. Kasallikdan saqlanish uchun sog'lom turmush tarzi, ortiqcha ovqatlanishdan saqlanish tavsiya etiladi.

Ratsionda rafinirlangan ovqatlar, yog'li go'shtlar, alkogolli ichimliklar, shakarli va gazlangan ichimliklar, ziravorlar, achchiq choy, qahva va ichaklarni qo'zg'atuvchi boshqa mahsulotlar miqdorini kamaytirish zarur. Shuningdek, hissiy holatni nazorat qilish, stressni kamaytirish tavsiya etiladi. Yarali kolitda tez-tez va oz miqdordan ovqatlanish, yetarlicha suv ichish, vitamin komplekslarini qabul qilish juda muhimdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isaqova, N.R. (2023). Influence of constipation on anthropometric indicators of children. *Science and Innovation*, Volume 1, Issue 8, pp. 888-892.
2. Isakova,N.R. (2021). The effect of constipation due to diseases of the colon on the anthropometric parameters of children. *Asian journal of multidimensional research,* Volume:10, Issue 5, pp. 666-669.
3. ANTHROPOMETRIC INDICATORS OF CHILDREN
   IN Raxmatjonovna
   Scientific Impulse 1 (5), 883-887
4. BOLALARNING ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHLARINI TURLI OMILLARGA BOG'LIQLIGI
   N Isaqova
   Science and innovation 1 (D8), 1000-1003
5. ВЛИЯНИЕ ЗАПОРА НА АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ДЕТЕЙ ПРИ ЗАБОЛЕВАНИЯХ ТОЛСТОГО КИШЕЧНИКА
   ИН Рахматжоновна
   тиббиётда янги кун 2 (34), 85-87
6. ВОЗМОЖНЫЕ ПУТИ КОРРЕКЦИИ СЕКРЕТОРНОЙ ФУНКЦИИ ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ С ЕЁ ПРОТОКОВОЙ СИСТЕМЫ
   НР Исакова, Ж Юнусов, АГ Худоярова
   НЕДЕЛЯ НАУКИ-2017, 489-491

https://wordlyknowledge.uz